

IQTISODIYOTNING AGRAR SEKTORINI MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYALARI

Abdullayeva Parvinabonu Azamatovna

Buxoro xalqaro universiteti, ikkinchi bosqich magistranti

parvinaabdullayeva33@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18995126>

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiyotning agrar sektorini modernizatsiya qilish strategiyalari yoritilgan. Agrar sohani zamonaviylashtirish qishloq xo'jaligi mahsuldorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish uchun innovatsion texnologiyalar va raqamli yechimlardan foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, xalqaro tajribaga tayangan holda, mahalliy sharoitlarga mos strategik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Natijada, agrar sektorning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini oshirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Iqtisodiyot, agrar sektor, modernizatsiya, qishloq xo'jaligi, strategiya, innovatsiya, texnologiya, investitsiya, agroklaster, agrotexnologiya, resurslardan samarali foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligi, bozor mexanizmlari.*

СТРАТЕГИИ МОДЕРНИЗАЦИИ АГРАРНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ

Абдуллаева Парвинабону Азаматовна

Бухарский Международный университет, магистрант второго курса

parvinaabdullayeva33@gmail.com

Аннотация: В данной статье освещаются Стратегии модернизации аграрного сектора экономики. Модернизация аграрного сектора будет иметь важное значение для повышения производительности сельского хозяйства, эффективного использования ресурсов и обеспечения продовольственной безопасности. В исследовании проанализированы существующие проблемы и обоснована необходимость использования инновационных технологий и цифровых решений для их решения. Также, опираясь на международный опыт, разрабатываются стратегические подходы, соответствующие местным условиям. В результате указаны пути устойчивого развития и повышения конкурентоспособности аграрного сектора.

Ключевые слова: *Экономика, аграрный сектор, модернизация, сельское хозяйство, стратегия, инновации, технологии, инвестиции, агрокластер, агротехнологии, эффективное использование ресурсов, продовольственная безопасность, рыночные механизмы.*

STRATEGIES FOR MODERNIZING THE AGRARIAN SECTOR OF THE ECONOMY

Abdullayeva Parvinabonu Azamatovna

Bukhara International University, second stage graduate

parvinaabdullayeva33@gmail.com

Annotation: This article covers strategies for modernizing the agrarian sector of the economy. The modernization of the agrarian sector is important in increasing agricultural

productivity, efficient use of resources and ensuring food security. The study analyzes the existing problems and justifies the need to use innovative technologies and digital solutions to eliminate them. Strategic approaches to local conditions have also been developed, relying on international experience. As a result, there are ways to improve the Sustainable Development and competitiveness of the agrarian sector.

Keywords: *Economy, agrarian sector, modernization, Agriculture, Strategy, Innovation, Technology, Investment, agrocluster, Agrotechnology, efficient use of resources, food security, market mechanisms.*

KIRISH

Jahon miqyosida iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligi, milliy iqtisodiyotlarning mustahkamligi va xalq farovonligi darajasining yuksalishi ko'p jihatdan agrar sektorning rivojlanishiga bog'liqdir. Qishloq xo'jaligi nafaqat aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi, balki sanoat tarmoqlarini xomashyo bilan ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va milliy valyuta barqarorligiga hissa qo'shishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Shu bois dunyoning ko'plab mamlakatlari agrar sektorni modernizatsiya qilish, uni zamonaviy talablar asosida isloh etish va raqobatbardoshligini oshirishni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilamoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham agrar sohaning iqtisodiyotdagi o'rnini alohida e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Aholining katta qismi qishloq joylarda yashashi, mehnat resurslarining salmoqli qismi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishi, shuningdek, mamlakatning eksportida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushi yuqoriligi ushbu tarmoqni modernizatsiya qilishni dolzarb vazifa sifatida ko'rsatadi. Qolaversa, agrar sektorning samaradorligi aholining oziq-ovqat xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik va hududiy rivojlanish masalalari bilan bevosita bog'liqdir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda agrar sohani chuqur isloh qilish, fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash, klaster tizimini rivojlantirish, yer resurslaridan oqilona foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida qishloq xo'jaligini boshqarish kabi keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq ushbu islohotlarni yanada samarali qilish, xalqaro tajribadan unumli foydalanish va mavjud imkoniyatlarni to'liq safarbar etish uchun agrar sektorni modernizatsiya qilishning ilmiy asoslangan strategiyalarini ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda.

Modernizatsiya tushunchasi agrar soha kontekstida ko'plab omillarni o'z ichiga oladi. Bu, avvalo, ishlab chiqarishning texnik va texnologik bazasini yangilash, zamonaviy agrotexnika vositalarini keng qo'llash, yuqori hosildorlikka ega urug'lik va seleksiya ishlarini yo'lga qo'yish, yer va suv resurslarini tejash va ularni samarali boshqarish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, modernizatsiya faqat texnik jihatlarni emas, balki institutsional, tashkiliy, moliyaviy va ijtimoiy o'zgarishlarni ham nazarda tutadi. Agrar sohada bozor munosabatlarini rivojlantirish, xususiyl mulkchilikni kengaytirish, davlat tomonidan samarali tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish ham mazkur jarayonning muhim tarkibiy qismidir.

Ayni paytda dunyo bozorida oziq-ovqat mahsulotlariga talab keskin oshib bormoqda. Aholi sonining ortishi, ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, yer unumdorligining pasayishi kabi omillar global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda. Shu nuqtayi nazardan O'zbekistonning agrar sektorini

modernizatsiya qilish strategiyalari nafaqat ichki bozorni barqaror oziq-ovqat bilan ta'minlash, balki mintaqaviy va global bozorlarda raqobatbardosh o'rin egallash uchun ham muhimdir.

Modernizatsiya jarayonida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy manfaatlarini oshirish, ularning huquqiy himoyasini ta'minlash va xo'jalik yuritish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bevosita tabiat omillariga, iqlim sharoitlariga va tabiiy resurslarga bog'liq bo'lib, katta risklarni o'z ichiga oladi. Shunday sharoitda davlat tomonidan aniq strategik yondashuv ishlab chiqilishi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kengaytirilishi, qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratilishi zarur.

O'zbekiston agrar sohasini modernizatsiya qilish jarayonida bir necha muhim tamoyillar ko'zda tutilishi kerak. Avvalo, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh ishlab chiqarishning shakllanishi asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Bu esa yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va mahsulotlarni chuqur diversifikatsiya qilishni talab etadi. Shu bilan birga, tashqi bozorlar talabi va xalqaro standartlarga mos mahsulot yetishtirish ham muhimdir.

Shuningdek, agrar sohada innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Innovatsiyalar yangi texnologiyalarni joriy etish, ilmiy izlanishlar natijalarini amaliyotga tadbqiq qilish, agrotexnika xizmatlarini kengaytirish orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining samaradorligini oshiradi. Raqamli texnologiyalar, aqlli qishloq xo'jaligi tizimlari, “smart farming” va “precision agriculture” kabi ilg'or yondashuvlarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali resurslardan foydalanish samaradorligini keskin oshirish mumkin.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida ekologik barqarorlikni ta'minlash ham modernizatsiya strategiyalarining muhim yo'nalishlaridan biridir. Chunki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tabiat resurslari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning noto'g'ri ekspluatatsiyasi kelgusida katta ekologik muammolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli ekologik toza texnologiyalarni qo'llash, organik dehqonchilikni rivojlantirish, agroekologik yondashuvlarni kengaytirish bugungi kun talabiga aylanmoqda.

Yana bir muhim jihat – qishloq joylarda yashovchi aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash va bandlikni ta'minlashdir. Agrar sektorning modernizatsiyasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik uchun ham muhimdir. Qishloq joylarda zamonaviy infratuzilma, yo'llar, ta'lim va tibbiyot muassasalari, axborot-kommunikatsiya xizmatlari rivojlantirilsa, bu qishloq aholisining farovonligini oshiradi, yoshlarning migratsiyasini kamaytiradi va hududiy tengsizlikni qisqartiradi.

Shu bilan birga, davlat siyosati darajasida qishloq xo'jaligi sohasida uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash ham modernizatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Xususan, ilmiy izlanishlar asosida yangi agrotexnologiyalar yaratish, seleksiya va genetika sohasida yutuqlarga erishish, suv resurslarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish kabi chora-tadbirlar sektor samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyotning agrar sektorini modernizatsiya qilish masalalari ko'plab olimlar, iqtisodchilar va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan o'rganib kelinayotgan dolzarb

mavzulardan biridir. Jahon miqyosida qishloq xo'jaligi iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayverlaridan biri sifatida qaraladi va uning modernizatsiyasi nafaqat milliy oziq-ovqat xavfsizligi, balki xalqaro raqobatbardoshlikni ham belgilab beradi. Shu sababli ilmiy adabiyotlarda agrar sektorni rivojlantirish strategiyalariga oid yondashuvlar, nazariy qarashlar va amaliy tavsiyalar keng muhokama qilingan.

Xorijiy olimlar agrar sektorni modernizatsiyalash masalasini turli jihatlarida o'rganib, amaliy siyosat va strategiyalar uchun muhim g'oyalarni ilgari surganlar. Masalan, F.Fielding [1] agrar sektorda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. U raqamli qishloq xo'jaligi tizimlari va aqlli texnologiyalarni qo'llashni asosiy yo'nalish sifatida ko'rsatadi. V.Mkkallum [2] esa agrar sohani raqamlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiy raqobatbardoshlikni mustahkamlashga urg'u beradi. E.Hughes [3] o'z ishlarida davlat siyosatining fermerlarni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish orqali agrar sektorning barqarorligini ta'minlashdagi rolini o'rganadi. S.Kennedy [4] agrar modernizatsiyada iqlim o'zgarishlariga moslashish va barqaror rivojlanish tamoyillarini qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, J.Morrison [5] agrar sektorni innovatsion boshqaruv va yangi investitsiyalarni jalb etish orqali rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratadi. Ularning fikrlariga ko'ra, agrar sektorning modernizatsiyasi uchun texnologik yangilanishlar, siyosiy qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy strategiyalar muhim ahamiyatga ega.

Rossiyalik olimlar ham iqtisodiyotning agrar sektorini modernizatsiya qilish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borgan. Masalan, A.N.Chekmaryov [6] o'z asarlarida qishloq xo'jaligi modernizatsiyasida davlat siyosati va infratuzilma rivojining ahamiyatiga e'tibor qaratadi hamda agrar sektorni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish zarurligini asoslaydi. V.I.Nazarenko [7] qishloq xo'jaligida innovasion yondashuvlarning, xususan, raqamli texnologiyalar va aqlli dehqonchilik tizimlarining samaradorlikni oshirishdagi rolini ta'kidlab, modernizatsiyaning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini yoritadi. Sh.M.Muxtarova [8] esa agrar sektorni modernizatsiya qilishda agrobiznesni rivojlantirish va kichik fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash muhimligini ko'rsatib, ushbu jarayonni oziq-ovqat xavfsizligi bilan bevosita bog'laydi. A.Y.Lansov [9] esa agrar infratuzilma, logistika va xizmat ko'rsatish tizimlarining samarali faoliyati qishloq xo'jaligi modernizatsiyasida hal qiluvchi omil ekanini asoslaydi. Shu bilan birga, V.P.Maslovning [10] tadqiqotlarida qishloq xo'jaligida intensiv ishlab chiqarish yo'nalishlari, yuqori hosildor navlardan foydalanish va agrotexnik tadbirlarni modernizatsiya qilish orqali agrar sektorning barqarorligini ta'minlash g'oyalari ilgari suriladi. Ularning qarashlari Rossiyada agrar sohani modernizatsiya qilish bo'yicha ilmiy yondashuvlarning keng doirasini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston olimlari tomonidan iqtisodiyotning agrar sektorini modernizatsiya qilish masalalari turli jihatlarida tahlil etilgan. J.Farmanov, N.Rimboyeva va F.Qaxramonov [11] agrar siyosatni samarali amalga oshirish resurslardan oqilona foydalanish, fermer xo'jaliklari faoliyatini qo'llab-quvvatlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Ularning yondashuvi bozor infratuzilmasi va davlat dasturlarining ahamiyatini ochib beradi. Shu bilan birga, Y.O'rinboyeva va O.Baxtiyorov [12] agrar munosabatlarni modernizatsiya qilishda agrobiznesni rivojlantirish hal qiluvchi o'rin tutishini qayd etadi. Ularning fikriga ko'ra, agrobiznes subyektlari raqobatbardoshlikni kuchaytirish, resurslardan samarali foydalanish va yangi investitsiyalarni jalb etishda muhim vositadir.

Z.Shoxojaeva va Y.Muxammadieva [13] esa modernizatsiyaning asosi sifatida innovatsion texnologiyalarni joriy etishga urg'u beradi. Ularning ta'kidlashicha, aqlli dehqonchilik, raqamli boshqaruv va ilmiy yondashuvlar qishloq xo'jaligi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O.Xusainov [14] esa intensiv ishlab chiqarish yo'nalishlarini ilgari surib, yuqori hosildorlik va tannarxni kamaytirish orqali agrar sohaning barqarorligini ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning agrar sektorini modernizatsiya qilish global miqyosda dolzarb masala bo'lib, ilmiy qarashlar hamda amaliy yondashuvlarda bu sohaning rivojlanishi uchun turli strategiyalar ishlab chiqilgan. Ularning barchasi qishloq xo'jaligining samaradorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va barqaror rivojlanishga erishishga qaratilgan. O'zbekiston tajribasi ham jahon adabiyotida ilg'or yondashuvlar bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda va bu jarayon mamlakatning iqtisodiy o'sishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda iqtisodiyotning agrar sektorini modernizatsiya qilish strategiyalarini chuqur o'rganish va ilmiy asoslash maqsad qilingan bo'lib, metodologik asos sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va empirik kuzatuvlardan foydalanildi. Tizimli yondashuv orqali agrar sohaning iqtisodiyotdagi o'rni, uning boshqa tarmoqlar bilan aloqasi va samaradorlikka ta'siri tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil jarayonida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan agrar islohotlar xalqaro tajriba bilan solishtirilib, ilg'or yondashuvlar milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Empirik yondashuv esa statistik ma'lumotlar, davlat dasturlari, strategik hujjatlar va normativ-huquqiy asoslarni o'rganish orqali amalga oshirildi.

Tadqiqot davomida induktiv va deduktiv usullar uyg'unlashtirildi, ya'ni amaliy kuzatuvlardan umumiy nazariy xulosalar chiqarildi va nazariy qarashlar asosida amaliy natijalar baholandi. Dinamik tahlil yordamida agrar sektor rivojlanishining tarixiy bosqichlari va istiqboldagi yo'nalishlari aniqlab berildi. Tanlangan metodologiya sohani modernizatsiya qilish strategiyalarini nazariy hamda amaliy jihatdan asoslashga, mavjud muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini ishlab chiqishga imkon yaratdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan agrar sektorida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohalari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi bandligini oshirish va hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda katta ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda bu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, ilg'or agrotexnologiyalarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish, kooperatsiyalarni rivojlantirish va raqamli monitoring tizimlarini kengaytirish natijasida agrar soha barqaror rivojlanmoqda. Agrar sektordagi yillik o'sish sur'atlari, mahsulot va xizmatlar hajmi hududlar kesimida farqlanib, har bir viloyatning iqlim, infratuzilma, tabiiy resurslar va iqtisodiy salohiyatiga bog'liq holda shakllanmoqda. Aynan shuning uchun ham bu sohalarda hududlar kesimidagi o'sish dinamikasini tahlil qilish agrar siyosatning rejalashtirilgan, manzilli va samarali bo'lishi uchun zaruriy omil hisoblanadi.

Quyida keltirilgan jadvalda O'zbekiston Respublikasida 2025-yilning yanvar-iyun oylarida agrar sektordagi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hamda o'sish sur'atlari hududlar kesimida yoritilgan bo'lib, agrar sektordagi hududiy o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi (1-jadval):

1-jadval

**Agrar sektordagi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari
hajmi hududlar kesimida, 2025-yil yanvar-iyun [15]**

Hudud	Hajm (mlrd soʻm)	Oʻsish surʼati (%)
Oʻzbekiston Respublikasi	194 910,4	104,0
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	5 478,4	103,8
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	19 297,3	103,8
Buxoro	17 486,4	103,9
Jizzax	11 757,6	103,6
Qashqadaryo	19 809,0	104,1
Navoiy	9 245,0	104,1
Namangan	13 754,8	104,4
Samarqand	21 143,6	104,6
Surxondaryo	18 081,1	102,6
Sirdaryo	6 201,9	103,9
Toshkent	19 760,2	104,3
Fargʻona	19 992,2	104,8
Xorazm	12 902,9	104,0

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi maʼlumotlardan bizga maʼlumki, 2025-yilning yanvar-iyun oylarida Oʻzbekiston Respublikasida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlari va xizmatlarining umumiy hajmi 194 910,4 mlrd soʻmni tashkil etgan boʻlib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 4,0 foizlik oʻsish qayd etildi. Hududlar kesimida eng yuqori hajmda mahsulot ishlab chiqarilgan viloyatlar qatorida Samarqand viloyati yetakchilik qilmoqda, yaʼni bu hududda koʻrsatkich 21 143,6 mlrd soʻmga teng boʻlgan. Undan keyingi oʻrinlarda Fargʻona viloyati 19 992,2 mlrd soʻm, Qashqadaryo viloyati 19 809,0 mlrd soʻm, Toshkent viloyati 19 760,2 mlrd soʻm, Andijon viloyati 19 297,3 mlrd soʻm va Surxondaryo viloyati 18 081,1 mlrd soʻm hajm bilan qayd etildi.

Mahsulot hajmi boʻyicha eng past koʻrsatkichlar Qoraqalpogʻiston Respublikasida 5 478,4 mlrd soʻm, Sirdaryo viloyatida 6 201,9 mlrd soʻm va Navoiy viloyatida 9 245,0 mlrd soʻmni tashkil etdi. Bu holat ushbu hududlarda tabiiy resurslar, suv taʼminoti yoki yer maydonlari kabi omillar cheklangan boʻlishi bilan izohlanadi.

Oʻsish surʼatlari boʻyicha esa eng yuqori natijalar Fargʻona viloyatida kuzatilib, u 104,8 foizni tashkil qilgan. Undan keyin Samarqand viloyati 104,6 foiz, Namangan viloyati 104,4 foiz, Toshkent viloyati 104,3 foiz, Qashqadaryo viloyati 104,1 foiz va Navoiy viloyati ham 104,1 foiz koʻrsatkich bilan yuqori oʻsish surʼatlariga ega boʻldi. Bu viloyatlar aholining mehnatsevarligi, yerga samarali ishlov berish va davlat tomonidan koʻrsatilgan qoʻllab-quvvatlashlar natijasida yuqori natijalarga erishgan.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda oʻsish surʼatlari nisbatan past boʻldi. Jumladan, Surxondaryo viloyatida oʻsish surʼati 102,6 foizni tashkil etib, bu eng past koʻrsatkich hisoblanadi. Shuningdek, Jizzax viloyatida 103,6 foiz, Qoraqalpogʻiston Respublikasida 103,8 foiz, Andijon viloyatida 103,8 foiz, Sirdaryo viloyatida 103,9 foiz va Buxoro viloyatida 103,9 foiz

o'sish qayd etilgan. Bu hududlarda o'sish dinamikasining sekinligi agrar siyosatni yana bir bor ko'rib chiqishni talab qiladi.

Iqtisodiyotning agrar sektori har bir mamlakat uchun nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda ham asosiy omil hisoblanadi. Shu sababli so'nggi yillarda agrar sohani modernizatsiya qilish strategiyalari ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Modernizatsiya jarayonida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimlari, texnologik jarayonlar, boshqaruv va moliyalashtirish mexanizmlarini zamonaviy talablarga moslashtirish ko'zda tutiladi. Bu nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki mahsulot sifatini yaxshilash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham qaratilgan.

Strategiyalarni ishlab chiqishda ilmiy-tadqiqot ishlari, ilg'or tajribalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish kabi ko'plab omillar muhim o'rin tutadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrar sektorda modernizatsiya jarayonlari samarali amalga oshirilgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'ladi, eksport salohiyati ortadi va eng muhimi, qishloq aholisi uchun barqaror daromad manbalari yaratiladi.

O'zbekiston sharoitida agrar sektorni modernizatsiya qilishda davlatning qishloq xo'jaligi siyosati, raqamli texnologiyalarni joriy etish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, klaster tizimining kengayishi, kooperatsiyalarni rivojlantirish kabi yo'nalishlar asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu yo'nalishlarning mazmuni, amalga oshirish mexanizmlari va kutilayotgan natijalari quyidagi jadvalda ko'rib chiqamiz (2-jadval):

2-jadval

Agrar sektorni modernizatsiya qilish strategiyalari¹

Strategiya yo'nalishi	Amalga oshirish mexanizmlari	Kutilayotgan natijalar
<i>Texnologik modernizatsiya</i>	Zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, raqamli agroteknologiyalarni keng qo'llash	Mehnat unumdorligining oshishi, ishlab chiqarish tannarxining pasayishi
<i>Infratuzilmani rivojlantirish</i>	Sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish, transport-logistika tarmoqlarini kengaytirish	Mahsulot yetkazib berishda tezkorlik va sifatning oshishi
<i>Moliyaviy qo'llab-quvvatlash</i>	Kredit va subsidiyalarni ko'paytirish, investitsiyalarni jalb qilish	Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun moliyaviy barqarorlik
<i>Kadrlar salohiyatini oshirish</i>	Qishloq xo'jaligi sohasida ta'lim va malaka oshirish dasturlarini rivojlantirish	Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar shakllanishi
<i>Kooperatsiya va klaster tizimi</i>	Fermer xo'jaliklari o'rtasida kooperatsiyalarni kengaytirish, klaster tizimini mustahkamlash	Samaradorlik va mahsulotning qo'shimcha qiymatini oshirish
<i>Ekologik barqarorlik</i>	Resurslardan oqilona foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish	Atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish va barqaror rivojlanish

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

<i>Eksport salohiyatini oshirish</i>	Standartlashtirish, sertifikatlash va xalqaro bozorga chiqish mexanizmlarini qo'llash	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi ortishi
--	---	---

Yuqoridagi jadval agrar sektorni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari va ularni amalga oshirish mexanizmlarini yoritib beradi. Undan ko'rinib turibdiki, modernizatsiya jarayoni ko'p qirrali bo'lib, texnologik yangilanishdan tortib, ekologik barqarorlikka qadar bo'lgan barcha jihatlarni qamrab oladi. Texnologik modernizatsiya agrar sektorning zamonaviy talablar asosida rivojlanishini ta'minlab, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Bu esa mehnat unumdorligini sezilarli darajada ko'tarib, mahsulot tannarxini kamaytiradi.

Infratuzilmaning rivojlanishi ayniqsa qishloq hududlari uchun dolzarbdir. Sug'orish tizimlarining modernizatsiya qilinishi suv resurslaridan oqilona foydalanishga yordam beradi, transport va logistika tarmoqlarining kengayishi esa ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga tez va sifatli yetkazib berishni ta'minlaydi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari fermer xo'jaliklari va agrar korxonalar uchun barqaror faoliyat yuritish imkonini beradi. Kredit va subsidiyalarning ko'payishi, shuningdek investitsiyalarning jalb qilinishi qishloq xo'jaligida innovatsion loyihalarni amalga oshirishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, kadrlar salohiyatini oshirish strategiyasi zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Kooperatsiya va klaster tizimining kengayishi agrar sektorning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlaydi, balki mahsulotning qo'shimcha qiymatini ham oshiradi. Ekologik barqarorlikka erishish esa uzoq muddatli rivojlanish uchun muhim omildir, chunki tabiiy resurslardan oqilona foydalanish barqaror qishloq xo'jaligi siyosatini shakllantiradi. Shuningdek, eksport salohiyatini oshirish strategiyasi milliy mahsulotlarni jahon bozorida raqobatbardosh qilishga yordam beradi. Standartlashtirish va sertifikatlash jarayonlari mahsulot sifatini kafolatlaydi va xalqaro talablar asosida raqobatga kirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, iqtisodiyotning agrar sektorini modernizatsiya qilish zamonaviy rivojlanishning muhim omili sifatida mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlash va eksport salohiyatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada agrar sektorning mavjud holati, uni modernizatsiya qilish zaruriyati, xalqaro tajribalar hamda zamonaviy yondashuvlar tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, texnologik yangilanish, ilmiy izlanishlar natijalarini amaliyotga tadbiq etish va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish orqali agrar sohaning samaradorligi hamda raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Mavzuga doir o'rganilgan yondashuvlar asosida quyidagi takliflarni ishlab chiqik:

- Yagona strategik yondashuvni ishlab chiqish. Agrar sektorni modernizatsiya qilish bo'yicha milliy xususiyatlarga mos yagona strategiya va indikatorlar tizimini shakllantirish zarur;
- Resurslardan oqilona foydalanish. Yer va suv resurslarini tejash, monitoring qilish va ularni ilmiy asosda boshqarish tizimini joriy etish barqarorlikni ta'minlaydi;

- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Raqamli qishloq xo‘jaligi, “aqlii dehqonchilik (smart farming)” va “aniq dehqonchilik (precision agriculture)” kabi ilg‘or texnologiyalarni kengaytirish agrar soha samaradorligini oshiradi;
- Ilmiy-tadqiqotlar va ta’limni rivojlantirish. Seleksiya, genetika va agrotexnologiyalar bo‘yicha ilmiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va kadrlar malakasini oshirish zarur;
- Moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini kredit, subsidiyalar va sug‘urta mexanizmlari orqali rag‘batlantirish samarali natija beradi;
- Kooperatsiya va klasterlarni rivojlantirish. Fermer xo‘jaliklari va qayta ishlash sanoati o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish bozor talabiga mos mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi;
- Xalqaro tajribani joriy etish. Xorijiy ilg‘or tajribalar, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va texnologiyalarni milliy sharoitga moslashtirish modernizatsiyani tezlashtiradi.

Umumiy qilib aytganda, agrar sektorni modernizatsiya qilish mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlash, aholi farovonligini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh o‘rin egallashda muhim vositadir. Shu bois, strategiyalarni izchil amalga oshirish, ilmiy asoslangan yondashuvlarni keng tatbiq etish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Fielding F.H.T. Agricultural Modernization: Technological Innovations and Sustainable Practices. Cambridge University Press, 2017.
2. McCallum W.A. Digital Transformation in Agriculture: Opportunities and Challenges. Oxford University Press, 2019.
3. Hughes E.K. Agricultural Policy and Economic Development. Routledge, 2015.
4. Kennedy S.H. Climate Change and Agricultural Modernization: A Sustainable Approach. Springer, 2020.
5. Morrison J.L. Innovations in Agricultural Management and Investment. Palgrave Macmillan, 2018.
6. Чекмарёв А.Н. Модернизация сельского хозяйства в условиях инновационного развития. – Москва: Экономика, 2018. 276 с.
7. Назаренко В.И. Инновационные подходы в аграрной сфере: проблемы и перспективы. – Санкт-Петербург: Питер, 2020. 312 с.
8. Мухтарова Ш.М. Агробизнес как фактор модернизации сельского хозяйства. // Вестник аграрной науки. 2019. №4. С. 15–21.
9. Ланцов А.Е. Инфраструктура: понятие, виды и значение // Статистика и экономика. 2013. №3. С. 49–54.
10. Маслов В.П. Интенсивные технологии и модернизация аграрного производства. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2017. 254 с.
11. Farmanov J., N.Rimboyeva F. Qaxramonov. Mamlakatimizda agrar siyosatni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2, issue 3. March 2022. С. 1191–1197.
12. O‘rinboyeva Y.P., Baxtiyorov O.E. Agrar munosabatlar va agrobiznes // Экономика и социум. 2024. №4(119)-1. С. 409–413.

13. Shoxo'jaeva Z.S., Muxammadieva Y.Y. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. volume 2, issue 5.
14. Xusainov O.D. Qishloq xo'jaligida intensiv ishlab chiqarishning asosiy yo'nalishlari // «Экономика и социум» ilmiy jurnali, №12(127)-2, 2024. С. 964–966.
15. <https://stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi